

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ZARIPOVA MUKADDAS DJUMAYOZOVNA

**YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH SIFATINING
STATISTIK TAHLILI VA PROGNOZLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctoral of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Zaripova Mukaddas Djumayozovna

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatining statistik tahlili va
prognozlashtirish.....5

Зарипова Мукаддас Джумаёзовна

Статистический анализ и прогнозирование качества подготовки
высококвалифицированных кадров.....31

Zaripova Mukaddas Djumayozovna

Statistical analysis and forecasting of the quality of training highly qualified
personnel.....61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....65

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ZARIPOVA MUKADDAS DJUMAYOZOVNA

**YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH SIFATINING
STATISTIK TAHLILI VA PROGNOZLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1785 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://www.urdu.uz>) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (<https://www.ziyonet.uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xatamov Ochildi Qurbonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ruzmetov Baxtiyar
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimov Javlon Qo'ziyevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.08.2020.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "18" iyul soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00; faks (99 862) 224-57-00; e-mail: info@urdu.uz.

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-683 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "23" iyun kuni tarqatildi.

(2023-yil "23" iyun dagi № 62 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.S.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

T.J.Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.f.d.(PhD)

U.R.Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, DSc.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuzaga kelgan global transformatsiyalashuv sharoitida mamlakatlarda yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj ahamiyati tobora ortib bormoqda. “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo mamlakatlarda oliy ta’lim sohasini rivojlantirishga sarflanadigan xarajatlar o’rtacha YaIMning 1,4% ni tashkil etadi. Har bir talaba uchun sarflanadigan o’rtacha xarajat esa 17 560 AQSH dollarini tashkil etadi. IHTT mamlakatlari bo’yicha o’rtacha hisobda umumiy xarajatlarning 63 foizi oliy ta’lim muassasalarining asosiy xizmatlariga (masalan: professor-o’qituvchilar maoshi, o’quv binolari, o’quv laboratoriyalar, o’quv materiallari va ma’muriyatga), 33 foizi ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlanmalarga va 4 foizi yordamchi (qo’shimcha xizmatlar)ga sarflanadi.”¹. Shu bois, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini oshirishga samarali ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularni yanada rivojlantirish bo’yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash muhim yo’nalish bo’lib qolmoqda.

Jahon amaliyotida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning yo’nalishlarini aniqlash va mexanizmlarini takomillashtirish borasida qator muammolarning yechimini hal qilish yuzasidan maqsadli ilmiy tadqiqotlar tashkil etilgan bo’lib, jumladan: oliy ta’limda kadrlar tayyorlash sifati monitoring tizimini takomillashtirish, zamonaviy iqtisodiyotda talab yuqori bo’lgan kompetensiyalarni prognozlashtirish, tahsil oluvchilar o’quv yutuqlarini prognozlashtirish, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida talab etiladigan kompetensiyalarini shakllantirilishini boshqarish masalalari uchun yondashuvlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Yangi O‘zbekiston innovatsion iqtisodiyoti talabiga javob beradigan, ehtiyojlarini qondiradigan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo’shadigan salohiyatli, raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini oshirishga davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida yuksak darajada e’tibor berilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmonida² 2022-yilda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 38 foizga, 2026-yilda ushbu ko’rsatkichni 50 foizga yetkazish hamda ta’lim sifatini oshirish, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonining 1-ilovasi (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi)da mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta’minlash, o’quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro‘yxatiga kiritish, yuqori malakali professor-o’qituvchilar, olimlarni ta’lim jarayoniga jalb qilishning samarali

¹ https://www.oecd-ilibrary.org/education/education-at-a-glance-2022_3197152b-en

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 – 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

mexanizmlarini yaratish, muayyan ko'rsatkichlar asosida ularning faoliyatini baholash tizimini rivojlantirish³ kabi ustuvor strategik maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta'minlashda oliy ta'lim muassasalarining yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonlarini iqtisodiy-statistik tahlil etish hamda baholash va ular yechimining optimal variantlarini iqtisodiy-matematik modellashtirish yordamida aniqlash, istiqboldagi rivojlanish ko'rsatkichlari prognozlarini olish dolzarb masala hisoblanadi va muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bilan bog'liq muammolar xorij mamlakatlari olimlaridan H.Z.Zhu, S.Lou, M.Shah, S.Nair, John T.E.Richardson, A.Pabel, B.Oliver, C.H.Nguyen, M.Joneidi, A.-L. de Boer, Pieter Hertzog du Toit, Detken Scheepers, Theo J.D. Bothma⁴ va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonining 1-ilovasi (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi). <https://lex.uz/docs/4545884>

⁴ Zhu, H.Z. & Lou, S. (2011). Development and Reform of Higher Education in China // Chandos Publishing. P-192.; Shah, Mahsood & Nair, Sid & Richardson, John. (2016). Measuring and Enhancing the Student Experience // Chandos Publishing. P-188.; Mahsood Shah, John T. E. Richardson, Anja Pabel, Beverley Oliver. (2021) Assessing and Enhancing Student Experience in Higher Education // Springer International Publishing, P-354; Nguyen C.H., Shah M. (2019) Quality Assurance in Vietnamese Higher Education: Policy and Practice in the 21st Century// Springer Nature, P-292.; Nguyen, C. H. (2022). Professional development for educational policymakers: Relating to university quality assurance in Vietnam. Issues in Educational Research, 32(3), 1045-1066. <http://www.iier.org.au/iier32/nguyen-ch.pdf>; Joneidi, Mahdi. (2018). World University Rankings and the Future of Higher Education. 10.4018/978-1-5225-

Ular tomonidan oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va isloh qilish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalarida talabalarni tadqiqot ishlariga jalb etish orqali tadqiqotchilik kompetensiyalari, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, intellektual salohiyatli kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasasining innovatsion infratuzilmasi elementlaridan foydalanish kabi masalalarning ilmiy-nazariy hamda tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tadqiq qilingan. MDH mamlakatlari olimlaridan A.A.Gretchenko, N.Ye.Yegorov, G.S.Kovrov, A.A.Gibadullin, A.V.Karagodin, T.A.Pershina, Ye.S.Bogdan, A.I.Trubilin, V.I.Gayduk, V.A.Gurtov, Ye.A.Pituxin, N.N.Travkina, A.G.Mokronosov⁵ va boshqalarning ilmiy ishlarida global transformatsiyalashuv sharoitida raqamli iqtisodiyot, turizm sanoati, qishloq xo'jaligi va boshqa muayyan tarmoq sohalarini rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalari tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan S.S.Gulyamov, R.X.Ayupov, M.K.Abdullayev, G.Q.Abduraxmonova, D.J.Rustamov, Q.X.Abdurahmonov, Sh.R.Xolmo'minov, A.O.Ochilov, O.S.Qahhorov, N.R.Raxmonov, O.K.Abduraxmanov, J.O.Kucharov, D.X.Vaxabova⁶ va boshqalarning ilmiy asarlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida chuqur bilim va yuksak salohiyatga ega kadrlar taqchilligiga barham berish, oliy ta'lim muassasalarida yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar ochish, yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirib, amaliyotga joriy etishga qodir yuksak salohiyatli kadrlar tayyorlash masalalarini hal etishning ilmiy-nazariy jihatlari yoritilgan.

0819-9.; Ann-Louise de Boer, Pieter du Toit, Detken Scheepers, Theo Bothma. (2013). Whole Brain® Learning in Higher Education: Evidence-Based Practice// Elsevier, P-292.

⁵ Гретченко А.А. Подготовка высококвалифицированных кадров для цифровой экономики // Россия: тенденции и перспективы развития. 2018. №13 (1). стр. 824-827.; Егоров Н.Е., Ковров Г.С. Особенности подготовки кадров в условиях перехода на новый технологический уклад //Человек и образование. – 2018. – №. 2 (55). – С. 117-122.; Гибадуллин А.А., Карагодин А.В. Вызовы цифровой экономики в сфере подготовки кадров //Актуальные проблемы экономики и менеджмента. 2019. №. 2. – С. 33-42.; Першина Т.А. Статистический анализ развития системы высшего образования в Российской Федерации: дисс. на соискание учёной степени доктора эконом. наук. – Москва, 2016. – 198 с.; Богдан Е.С. Управление формированием компетенций выпускников вузов инженерных направлений подготовки: дисс. на соискание учёной степени канд. эконом. наук. – Сургут, 2021. – 153 с.; Трубилин А.И., Гайдук В.И. Проблемы подготовки ВКК для села //Инновации в АПК: проблемы и перспективы. – 2017. – №. 4. – С. 42-50.; Гуртов В.А., Питухин Е.А. Прогнозирование потребностей экономики в квалифицированных кадрах: обзор подходов и практик применения //Университетское управление: практика и анализ. – 2017. – Т. 21. – №. 4 (110). – С. 130-161.; Травкина Н.Н. Совершенствование механизмов подготовки ВКК //Профессиональное образование и рынок труда. – 2015. – №. 9-10. – С. 24-26.; Мокроносов А.Г. и др. Прогнозирование потребности региональной экономики в подготовке квалифицированных кадров: монография. // Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2010. 111 с.

⁶ Gulyamov S.S., Ayupov R.X., Abdullayev M.K. Raqamli iqtisodiyot-kadrlar tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. - 2020, №1 (yanvar-fevral), – B. 186-198.; Abduraxmonova G.Q., Rustamov D.J. Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. // Beau Bassin: "GlobeEdit" Publisher, 2020. – 127 b.; Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R. Inson taraqqiyoti. Darslik. // Toshkent.: Iqtisodiyot, 2013. – 542 b.; Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish: iqtisodiyot fanlari doktori diss... avtoref. – Toshkent, 2018. – 76 b.; Qahharov O.S. Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro va Navoiy viloyatlari misolida): iqtisodiyot fanlari doktori diss... avtoref. – Samarqand, 2021. – 80 b.; Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish: iqtisodiyot fanlari doktori diss... avtoref. – Toshkent, 2019. – 84 b.; Abduraxmanov O.K. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi // Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti. 2014, 228 bet.; Kucharov J.O. Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yo'llari: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori diss... avtoref. – Toshkent, 2021. – 56 b.; Vaxabova D.X. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida intellektual kapitaldan samarali foydalanish yo'llari: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori diss... avtoref. – Toshkent, 2022. – 50 b.

Shunga qaramay, oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish borasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ko'lami keng. Shu nuqtai nazardan, hamda iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida mehnat bozorida raqobat muhiti tobora kuchayib borayotgan davrda oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, iqtisodiy-statistik tahlilini o'tkazish va baholash, optimal yechimlarini topish, oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifati istiqbolini prognozlashning ekonometrik modelini tuzish ilmiy-uslubiy asoslarini yanada chuqur tadqiq qilish va takomillashtirish mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilashga asos sifatida xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "TRIGGER" (Triggering innovative approaches and entrepreneurial skills for students through creating conditions for graduate's employability in Central Asia – Markaziy Osiyoda bitiruvchilarning ishga joylashishi sharoitlarini yaratish uchun talabalarning innovativ yondashuvlari va tadbirkorlik ko'nikmalarini yo'lga qo'yish) nomli ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini statistik tahlil etish va prognozlashtirish orqali baholashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim tizimi va unda tayyorlanayotgan kadrlarning mamlakat barqaror rivojlanishida tutgan o'rni, o'ziga xos xususiyatlarini statistik tadqiq etishni ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan asoslash;

yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida jahonda yetakchilik qilayotgan xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish va tahlil qilish orqali respublikamiz oliy ta'lim tizimida intellektual salohiyatli kadrlarni rivojlantirish hamda shakllantirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va ularning xususiyatlarini aniqlash hamda oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini kompleks baholashning takomillashgan mexanizmini ishlab chiqish;

oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash intensivligini iqtisodiy-statistik tahlil usullari orqali baholash hamda oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifati samaradorligini aniqlash uslubini takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar tarkibi sifatini baholovchi mezon va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar tarkibi sifatini baholash orqali, ular salohiyatini oshirishga hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga asos bo'ladigan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifat va samaradorligini baholash uchun tahsil oluvchilar o'quv muvaffaqiyatlari joriy holatini aniqlash va ularning kelajakdagi holati prognozini amalga oshirish;

oliy ta'lim muassasalari talabalari orasidan ta'limning keyingi bosqichida (magistratura) tahsilini davom ettirishi mumkin bo'lganlarini saralash va ta'lim natijalarini yetarlicha ishonchlik bilan prognoz qilishga imkon beradigan uslubiyot ishlab chiqish;

prognoz variantlarini ishlab chiqish orqali istiqbolda oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini oshirishga va sog'lom raqobat muhitini hamda raqobardoshlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining yuqori malakali kadrlar tayyorlash faoliyati, ularning sifat ko'rsatkichlari hamda mamlakat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini baholash, faoliyatini statistik tahlil qilish va prognozlash tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, nazariy tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, statistik kuzatish, iqtisodiy-statistik tahlil, statistik ma'lumotlarni jamlash va guruhlash, grafik tasvirlash, tizimli tahlil, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlash usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalar talabalarining ta'lim sifati va reytingi darajasini aniqlashning logit va probit modellari natijalariga ko'ra yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni samaradorligi va oliy ta'lim raqobatbardoshligini baholash yondoshuvi taklif etilgan;

yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tezlik (timelaps), samardorlik (coordef), daromad (totincamountnew) bo'yicha ishlash modellarini muvofiqlashtiruvchi integratsiyasi taklif etilgan;

oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda raqamli va raqamli bo'lmagan sektorlardagi kadrlarga bo'lgan talabning kompetentlik koeffisientlari asosida raqamlashtirilgan modeli taklif etilgan;

oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash faoliyatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha 2023-2027-yillarga mo'ljallangan ko'p omilli ekonometrik model asosida prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini oshirish, oliy ta'lim - ilm-fan - ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani ta'minlash, talabalarni ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatga jalb etishning samarali mexanizmini joriy etish uchun hududlardagi universitetlar qoshida "tadqiqot institutlari"ni tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalari salohiyati va kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash orqali oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni monitoringining kompyuterlashtirilgan tizimi (modeli) ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni baholash zarurati asoslab berilgan;

respublika oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash jarayoni intensivligi iqtisodiy-statistik tahlil usullari orqali baholangan va ular asosida takliflar ishlab chiqilgan;

respublika oliy ta'lim muassasalari yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga bevosita ta'sir etuvchi omil (professor-o'qituvchilar tarkibi) sifatini baholash mezon va ko'rsatkichlar tizimi takomillashtirilgan holda ishlab chiqilgan;

yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga bevosita ta'sir etuvchi omil (professor-o'qituvchilar tarkibi) sifati holatiga integral ko'rsatkichni guruh ko'rsatkichlari yig'indisiga asoslangan tortilgan arifmetik o'rtacha usulini qo'llash orqali obyektiv baho berilgan va ular asosida omil salohiyatini oshirishga qaratilgan asoslangan takliflar ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarining yuqori malakali kadrlar tayyorlash o'quv jarayoni sifat-samaradorligini oshirishda ixtisoslik fanlariga ta'minlovchi fanlarning ta'siri korrelyatsion-regression tahlil etilgan va o'qitishni fanlararo uzviy bog'liqlikda to'g'ri tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifat va samaradorligini baholash uchun tahsil oluvchilar retrospektiv ma'lumotlar tanlanmasiga asoslangan holda talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlarining bir jinsli Markov zanjiri yordamida prognoz parametrlari hisoblangan, olingan natijalar haqiqiy ma'lumotlar bilan taqqoslanib, ular asosida takliflar ishlab chiqilgan;

ta'lim natijalari va yutuqlari yuqori bo'lgan oliy ta'lim muassasalari talabalarini ta'limning keyingi bosqichida (magistraturada) tahsilini davom ettirishlari uchun saralash va tavsiya etish jarayonini yetarlicha ishonchlilik bilan prognoz bahosini beradigan binar tanlov modellari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan usul va yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, oliy ta'lim muassasalari axborot tizimlaridan olinganligi, berilgan xulosa, ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarni amalda sinovdan o'tganligi, nazariy tahlil va amaliy tadqiqot asosida olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, ularning mutasaddi tashkilotlar tomonidan ma'qullanganligi, OAK tavsiya etgan ilmiy jurnallarda nashr etilganligi, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan g'oyalar va ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlar tadqiqotchilar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish va nazariy-metodologik apparatni kengaytirishga, shuningdek, ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan hodisa va jarayonlarning samarali ekonometrik modellarini tuzish va ularni keng ko'lamda qo'llash orqali, oliy ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlash va strategik maqsadlarini belgilashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan oliy ta'lim muassasalarining kadrlar (professor-o'qituvchilar tarkibi) ilmiy salohiyati to'g'risida tahliliy axborotlar tayyorlashda, yuqori malakali kadrlar tayyorlash faoliyati bilan bog'liq jarayonlar iqtisodiy-statistik tahlilini o'tkazish, prognozlarini olish, monitoringini olib borish hamda sifatini baholashda, samaradorligini oshirish, istiqbolli yo'nalishlarini belgilash bo'yicha maqsadli dasturlar, chora-tadbirlar hamda yo'l xaritalarini ishlab chiqishda keng foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatining statistik tahlili va prognozlashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oliy ta'lim muassasalar talabalarining ta'lim sifati va reytingi darajasini aniqlashning logit va probit modellari natijalariga ko'ra yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni samaradorligi va oliy ta'lim raqobatbardoshligini baholash yondoshuvi yuzasidan ishlab chiqilgan taklifdan (Termiz davlat universitetining 2023-yil 13-fevraldagi 04/12-664-son ma'lumotnomasi), (Termiz davlat pedagogika institutining 2023-yil 14-fevraldagi 01-04/226-son ma'lumotnomasi), (Termiz muhandislik-texnologiya institutining 2023-yil 14-fevraldagi 04-04/188-son ma'lumotnomasi), (Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutining 2023-yil 14-fevraldagi 1-4-2/125-son ma'lumotnomasi) ish jarayonlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 1-maydagi 2/14-17/04-830-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi OTM professor-o'qituvchilari ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirishning istiqbolli rejalarini belgilash, innovatsion faoliyat faollik darajasini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish, moddiy-texnik va axborot-kommunikatsion baza holatini tahlil etish, undan foydalanish shart-sharoitlarini kengaytirish, moliyaviy holatini kompleks tahlil qilish va yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tezlik (timelaps), samardorlik (coordef), daromad (totincamountnew) bo'yicha ishlash modellarini muvofiqlashtiruvchi integratsiyasi yuzasidan ishlab chiqilgan taklifdan (Termiz davlat universitetining 2023-yil 13-fevraldagi 04/12-664-son ma'lumotnomasi), (Termiz davlat pedagogika institutining 2023-yil 14-fevraldagi 01-04/226-son ma'lumotnomasi), (Termiz muhandislik-texnologiya institutining 2023-yil 14-fevraldagi 04-04/188-son ma'lumotnomasi), (Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutining 2023-yil 14-fevraldagi 1-4-2/125-son ma'lumotnomasi) ish jarayonlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 1-maydagi 2/14-17/04-830-son ma'lumotnomasi). Natijada, professor-o'qituvchilar tarkibi sifatini baholash, faoliyati to'g'risida tahliliy axborotlar tayyorlash, sifat-salohiyatini oshirishga qaratilgan aniq va asoslangan yo'l xaritasini ishlab chiqishga erishilgan;

oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda raqamli va raqamli bo'lmagan sektorlardagi kadrlarga bo'lgan talabning kompetentlik koeffisientlari asosida raqamlashtirilgan modeli bo'yicha ishlab chiqilgan taklifdan (Termiz davlat universitetining 2023-yil 13-fevraldagi 04/12-664-son

ma'lumotnomasi), (Termiz davlat pedagogika institutining 2023-yil 14-fevraldagi 01-04/226-son ma'lumotnomasi), (Termiz muhandislik-texnologiya institutining 2023-yil 14-fevraldagi 04-04/188-son ma'lumotnomasi), (Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutining 2023-yil 14-fevraldagi 1-4-2/125-son ma'lumotnomasi) ish jarayonlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 1-maydagi 2/14-17/04-830-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda raqamli sektordan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, raqamli bo'lmagan sektorlarini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash faoliyatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha 2023-2027-yillarga mo'ljallangan ko'p omilli ekonometrik model asosida prognoz qiymatlari (Termiz davlat universitetining 2023-yil 13-fevraldagi 04/12-664-son ma'lumotnomasi), (Termiz davlat pedagogika institutining 2023-yil 14-fevraldagi 01-04/226-son ma'lumotnomasi), (Termiz muhandislik-texnologiya institutining 2023-yil 14-fevraldagi 04-04/188-son ma'lumotnomasi), (Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutining 2023-yil 14-fevraldagi 1-4-2/125-son ma'lumotnomasi) ish jarayonlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 1-maydagi 2/14-17/04-830-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi yuqori malakali kadrlar tayyorlash faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi buyicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqola nashr etilgan, shundan: respublika jurnallarida 6 ta, xorijiy jurnallarda 1 ta.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Hajmi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusi dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta‘lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini baholashning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oliy ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy-nazariy asoslari, respublikamiz hamda jahonda yetakchilik qilayotgan xorijiy mamlakatlarning kadrlarni tayyorlash borasida ta‘lim sohasida amalga oshirayotgan islohotlari, oliy ta‘lim muassasalari salohiyati va yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga ta‘sir qiluvchi omillar majmui hamda muammolari, shuningdek, ularning yechimlari yoritib berilgan. Bundan tashqari, oliy ta‘lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini iqtisodiy-statistik tahlili keltirilgan.

Ma‘lumki, malakali, yuqori salohiyatli kadrlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, texnologik va gumanitar masalalarning butun bir majmuasini hal etishga ta‘sir ko‘rsatuvchi eng muhim omil hisoblanadi.

Shu bois, oliy ta‘lim muassasalari (OTM)ning yuqori malakali kadrlar (YuMK) tayyorlash jarayonini o‘rganish obyekt sifatida murakkab tizimli yondashuvni talab qiladi. Tizimli yondashuv tamoyili qonun-qoidalariga ko‘ra, tizim xususiyatlari uni tashkil etuvchi qismlar bilan aloqadorligida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, oliy ta‘lim muassasalarida YuMK tayyorlash sifatini baholash uchun ma‘lum parametrlar sifatida, o‘zaro aloqadorlikda butun bir tizim hosil qiladigan ma‘lum tarkibiy elementlariga e‘tibor qaratish kerakligini anglatadi.


Ushbularni hisobga olgan holda, oliy ta‘lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni monitoringining kompyuterlashtirilgan tizimi ishlab chiqildi. Mazkur tuzilma ikkita blokdan tashkil topgan bo‘lib, u OTM salohiyati va kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini baholash modellarni o‘z ichiga olgan (1-rasm).

Ushbu tizim masalalarini iqtisodiy-matematik usullar va ekonometrik modellar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy amaliy dasturiy ilovalardan foydalanish orqali uzviy bog‘liqlikda hal etish oliy ta‘lim tizimida YuMK tayyorlash jarayoni xususiyatlarini shakllantirishga imkon beradi.

OTMlari salohiyatini baholash modellari blokiga kiruvchi modellar orqali quyidagi masalalar hal etiladi:

Professor-o‘qituvchilar tarkibi (PO‘T) ilmiy salohiyatini iqtisodiy-statistik tahlili orqali, o‘qituvchi salohiyatini ta‘limni transformatsiyalashuvi talablariga, mehnat bozori zamonaviy ehtiyojlariga mos YuMK tayyorlash siyosatiga muvofiqligi aniqlanadi, oliy ta‘lim muassasalari PO‘T holati va sifati baholanadi. PO‘T sifatini baholash mezonlar bazasi shakllantiriladi.

Oliy ta‘lim muassasalari talabalari va bitiruvchilari soni dinamikasini iqtisodiy-statistik tahlil etish orqali tadqiq etilayotgan davr uchun o‘zgarish tendensiyalari aniqlanib, miqdoriy jihatdan baho beriladi.



1-rasm. Oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni monitoringining kompyuterlashtirilgan tizimi⁷

Kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini baholash blokiga kiruvchi modellar yordamida esa quyidagi masalalar hal etiladi:

Talabalar bilimlari sifatini baholash modeli orqali kadrlar tayyorlash jarayoni sifati, ta'lim mazmuniga qo'yiladigan davlat talablari va OTM ichki sifat standarti xususiyatlari hisobga olingan holda, ekspert usullari yordamida talabalar o'quv tayyorgarligi darajasi, o'qitish natijalari holati aniqlanadi.

Talabalar (bitiruvchilar) o'zlashtirishi sifat ko'rsatkichlari va yutuqlarini baholash modeli yordamida retrospektiv mavsumiy baholarni aniqlash asosida, talabalarning kelgusi davr uchun prognoz qiymatlari hamda o'qitish natijalariga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi.

O'quv dasturlar, o'quv rejalar, o'quv fanlar va bilim sifatini baholash modeli orqali o'quv dasturlarning davlat ta'lim standarti talablariga javob berishi hamda mazmunini innovatsion xarakterga ega ekanligi, o'quv fanlarini o'zaro bog'liqligi, bilim sifati fundamentalligi, mustahkamligi va ishlab chiqarishda qanchalik darajada zaruriyligi baholanadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida 1991/1992-2020/2021 o'quv yillari kesimida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari va unda tahsil olgan talabalar soni o'zgarish intensivligi statistik tahlil etildi hamda 2010/2011 - 2020/2021 o'quv yillarida OTM talabalari soni dinamikasi miqdoriy jihatdan baholandi (1-jadval).

1-jadvalda keltirilgan, mutloq o'zgarishni bazisli usulda hisoblangan natijalari, 2011/2012 - 2016/2017 o'quv yillari oralig'ida respublika OTMlarida tahsil olayotgan talabalar soni bazis deb qabul qilingan 2010/2011 o'quv yilida tahsil olayotgan talabalar soniga nisbatan kamayganligini, 2017/2018 - 2020/2021 o'quv yillari oralig'ida esa bazis yildagiga nisbatan ijobiy tomonga o'zgarganligini ko'rsatmoqda.

⁷ Muallif ishlanmasi

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha OTM talabalar sonining 2010/2011-2020/2021 o‘quv yillarida o‘zgarishi statistik tahlili⁸

№	Yillar	Talabalar soni, ming kishi	Mutloq o‘zgarish, ming kishi		O‘zgarish sur‘ati, %		Qo‘shimcha o‘zgarish sur‘ati, %		1 % qo‘shimcha o‘zgarish ni mutloq mohiyati
			Bazisli	Zanjir- simon	Bazisli	Zanjir- simon	Bazisli	Zanjir- simon	Zanjir- simon
1	2010 / 11	274,5	-	-	-	-	-	-	-
2	2011 / 12	253,0	-21,5	-21,5	92,2	92,2	-7,8	-7,8	2745,20
3	2012 / 13	258,3	-16,2	5,3	94,1	102,1	-5,9	2,1	2530,26
4	2013 / 14	259,3	-15,2	0,9	94,5	100,4	-5,5	0,4	2583,43
5	2014 / 15	261,3	-13,2	2,0	95,2	100,8	-4,8	0,8	2592,90
6	2015 / 16	264,3	-10,2	3,0	96,3	101,1	-3,7	1,1	2613,32
7	2016 / 17	268,3	-6,2	4,0	97,7	101,5	-2,3	1,5	2642,91
8	2017 / 18	297,7	23,2	29,4	108,4	111,0	8,4	11,0	2682,81
9	2018 / 19	360,2	85,7	62,5	131,2	121,0	31,2	21,0	2976,89
10	2019 / 20	441,0	166,5	80,8	160,6	122,4	60,6	22,4	3602,04
11	2020 / 21	571,5	297,0	130,5	208,2	129,6	108,2	29,6	4409,91

Respublika OTMlarida tahsil olayotgan talabalar sonining eng katta o‘shishini bazisli usulda 2020/2021 o‘quv yilining 2010/2011 o‘quv yiliga farqida, zanjirsimon usulda 2020/2021 o‘quv yilining 2019/2020 o‘quv yiliga farqida kuzatish mumkin. Bunda, bazisli usulda mutloq o‘zgarish 297,0 ming kishiga, zanjirsimon usulda 130,5 ming kishiga ko‘paygan.

O‘zgarish sur‘atini bazisli usulda hisoblangan natijalari tahlili ham, 2011/2012 - 2016/2017 o‘quv yillari oralig‘ida respublika OTMlarida tahsil olayotgan talabalar soni bazis davrga nisbatan kamayganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida, o‘zgarish sur‘atining 100% dan past ekanligi bilan izohlanadi. 2017/2018 - 2020/2021 o‘quv yillari oralig‘ida bu ko‘rsatkich bazis davrga nisbatan yuqori ekanligini aks etmoqda. O‘zgarish sur‘ati 100% dan yuqoriligi o‘rganilayotgan o‘quv yilidagi OTM talabalar soni bazis yilga nisbatan o‘sganligini anglatadi. Ayniqsa, respublika OTMlarida tahsil olayotgan talabalar sonini eng katta o‘zgarish sur‘atini bazisli usulda hisoblanganda, mutloq o‘zgarish kabi, 2020/2021 o‘quv yilining 2010/2011 o‘quv yiliga nisbatida (208,2%) aks etganligini, zanjirsimon usulda hisoblanganda 2018/2019 o‘quv yilining 2017/2018 o‘quv yiliga nisbatida (121,0%) ifodalanganligini guvohi bo‘lish mumkin. Ya’ni bazisli usulda o‘zgarish sur‘ati 2 (2,08) barobarga, zanjirsimon usulda 1,2 barobardan ortiqroqqa oshganligini anglatadi.

1-jadvalda keltirilgan qo‘shimcha o‘zgarish sur‘atining bazisli usulda hisoblash natijalari tahlili, 2011/2012 - 2016/2017 o‘quv yillari oralig‘ida respublika OTMlarida tahsil olgan talabalar soni bazis 2010/2011 o‘quv yilidagi talabalar sonidan kamligini, 2017/2018 - 2020/2021 o‘quv yillari oralig‘ida esa ular soni bazis o‘quv yilidagi talabalar sonidan ortganligini ko‘rsatmoqda. Respublika OTMlarida

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

tahsil olayotgan talabalar sonini eng katta qo'shimcha o'zgarish sur'ati, jadval ma'lumotlariga ko'ra, bazisli usulda - 2020/2021 o'quv yilidagi talabalar soni mutloq o'zgarishini bazis deb qabul qilingan 2010/2011 o'quv yilidagi talabalar soniga nisbatida 108,2 foizni, zanjirsimon usulda 2018/2019 o'quv yilidagi talabalar soni mutloq o'zgarishini 2017/2018 o'quv yiliga nisbatida 21,0 foizni aks etganligini ko'rish mumkin.

OTM talabalari soni dinamikasiga umumlashtirib baho berish uchun dinamika qatori o'rtacha darajasi, o'rtacha mutloq o'zgarish, o'rtacha o'zgarish sur'atlari hisoblandi. Ular asosida iqtisodiy-statistik tahlil amalga oshirildi va xulosalar chiqarildi. Tahlillarga ko'ra, tadqiq etilayotgan yillar uchun tahsil olayotgan talabalar soni o'sish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifatini baholashning matematik modellari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini baholashning iqtisodiy-matematik usullari va mezonlari tahlil etilgan, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar tarkibi sifatini takomillashtirilgan baholash mezonlari va ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga ta’siri bayon etilgan, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar tarkibi salohiyatini oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ekspert so‘rov usulidan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

YuMKlar tayyorlash sifati va uni yanada oshirish masalasi ko‘p jihatdan bevosita OTMlari professor-o‘qituvchilari salohiyati va ish unumdorligiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, ular faoliyatini o‘rganish, tahlil qilish hamda baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

OTMlari professor-o‘qituvchilari tarkibi (PO‘T) sifatini baholash jarayonida: uning tarkibi, ma'lumotlilik darajasi, ilmiy darajalar, ilmiy unvonlar mavjudligi, ilmiy ixtisosligini ta'lim muassasasidagi kadrlar tayyorlash profiliga moslik darajasi tahlilini o'tkazish; alohida yo'nalishlar bo'yicha yagona ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish; ko'rsatkichlarni yaxlit birlashuvini integral ko'rsatkichga o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tadqiqot doirasida PO‘T sifatini baholash uchun 18 ta baholash mezoni va ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan va taklif etilgan. Hisoblashlarni amalga oshirish uchun ko‘rsatkichlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda boshlang‘ich ma'lumotlar shakllantirilgan.

Taklif etilgan ko‘rsatkichlar hisoblash natijalarini “yaxlit birlikka” keltirish uchun “Baholashni 100 ballik shkaladan 5 baholik shkalaga o‘tkazish” jadvali tavsiya qilingan. Boisi, ko‘rsatkichlar qiymatlarini 5 baholik shkalaga o‘tkazish PO‘T sifatini baholash ko‘rsatkichlari natijalarini tushunarli tarzda tahlil etish va xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Taklif etilgan mezon va ko‘rsatkichlardan Termiz davlat universiteti PO‘T tarkibi sifatini baholash va tahlil etishda foydalanilgan. Hisoblash natijalariga ko‘ra, ko‘rsatkichlar ranjirlangan (2-jadval).

2-jadval

Hisoblash natijalari bo'yicha ranjirlangan (tartiblangan) ko'rsatkichlar⁹

N_1^1	N_1^6	N_1^4	N_1^{11}	N_1^{18}	N_1^{13}	N_1^{12}	N_1^{15}	N_1^2	N_1^{14}	N_1^3	N_1^{16}	N_1^8	N_1^7	N_1^5	N_1^9	N_1^{10}	N_1^{17}
1	6	4	11	18	13	12	15	2	14	3	16	8	7	5	9	10	17
98,11	94,30	92,28	90,54	85,12	82,67	70,59	66,58	51,45	50,17	47,29	27,99	24,34	22,95	21,82	4,41	3,03	1,77
4,91	4,72	4,61	4,53	4,26	4,13	3,53	3,33	2,57	2,51	2,36	1,40	1,22	1,15	1,09	0,22	0,15	0,09

Unga ko'ra, PO'T sifatini baholash ko'rsatkichlarining hisoblash natijalari holatlari (M_1, M_2, \dots, M_n) shakllantirilgan. Holatlarni chegaraviy sonli qiymatlari va tavsifiy darajalari belgilab olingan (3-jadval).

3-jadval

PO'T sifatini baholash ko'rsatkichlarini hisoblash natijalari holatini chegaraviy sonli qiymatlari va tavsifiy darajalari¹⁰

No	Holatlar	PO'T sifatini baholash ko'rsatkichlarini hisoblash natijalari holatini chegaraviy sonli qiymatlari	PO'T sifatini baholash ko'rsatkichlarini hisoblash natijalari holatini tavsifiy darajalari
1	M_1	$4,50 (90) \leq N_{18}^I < 5,00 (100)$	A'lo
2	M_2	$4,00 (80) \leq N_{18}^I < 4,45 (89)$	Yaxshidan yuqori
3	M_3	$3,50 (70) \leq N_{18}^I < 3,95 (79)$	Yaxshi
4	M_4	$3,00 (60) \leq N_{18}^I < 3,45 (69)$	O'rtadan yuqori
5	M_5	$2,50 (50) \leq N_{18}^I < 2,95 (59)$	O'rta
6	M_6	$2,00 (40) \leq N_{18}^I < 2,45 (49)$	Yomon
7	M_7	$0,00 (0) \leq N_{18}^I < 1,95 (39)$	Juda yomon

Ko'rsatkichlarni holatlarga taqsimlash mezoni sifatida PO'T sifatini baholash uchun qo'llanilgan ko'rsatkichlar hisoblash natijalarining "5" baholik shkalaga o'tkazilgan qiymatlari (bahosi) olingan. Hisoblash natijalari asosida ranjirlangan ko'rsatkichlar 3-jadvalga ko'ra, qaysi holatga mos kelishi aniqlab olingan (4-jadval).

4-jadval

Hisoblash natijalari asosida ranjirlangan (tartiblangan) ko'rsatkichlar holatlari

11

N_1^1	N_1^6	N_1^4	N_1^{11}	N_1^{18}	N_1^{13}	N_1^{12}	N_1^{15}	N_1^2	N_1^{14}	N_1^3	N_1^{16}	N_1^8	N_1^7	N_1^5	N_1^9	N_1^{10}	N_1^{17}
M_1	M_1	M_1	M_1	M_2	M_2	M_3	M_4	M_5	M_5	M_6	M_7	M_7	M_7	M_7	M_7	M_7	M_7
4,91	4,72	4,61	4,53	4,26	4,13	3,53	3,33	2,57	2,51	2,36	1,40	1,22	1,15	1,09	0,22	0,15	0,09

⁹ Muallif ishlanmasi

¹⁰ Muallif ishlanmasi

¹¹ 2-3-jadval ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Unga ko‘ra, 2021/2022 o‘quv yilida Termiz davlat universiteti PO‘T sifatini baholash ko‘rsatkichlari natijalari tahlil etilgan. 2021/2022 o‘quv yilida Termiz davlat universiteti (TerDU) PO‘T sifatini baholash ko‘rsatkichlaridan $N_1^1, N_1^6, N_1^4, N_1^{11}$ ko‘rsatkich natijalari M_1 holatga (a‘lo), N_1^{18}, N_1^{13} ko‘rsatkich natijalari M_2 holatga (yaxshidan yuqori), N_1^{12} ko‘rsatkich natijasi M_3 holatga (yaxshi), N_1^{15} ko‘rsatkich natijasi M_4 holatga (o‘rtadan yuqori), N_1^2, N_1^{14} ko‘rsatkich natijalari M_5 holatga (o‘rta), N_1^3 ko‘rsatkich natijasi M_6 holatga (yomon) hamda $N_1^{16}, N_1^8, N_1^7, N_1^5, N_1^9, N_1^{10}, N_1^{17}$ ko‘rsatkich natijalari M_7 holatga (juda yomon) mos kelganligi aniqlandi.

Bizning fikrimizcha, tadqiq etilayotgan ob‘ekt uchun alohida ko‘rsatkichlar har doim ham bir xil darajada muhim rol o‘ynamaydi va PO‘T sifati holatini obyektiv baholashni ta‘minlamaydi. Shu bois, PO‘T sifatini baholash va salohiyatini oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun umumlashtirilgan bahoni olishga zarurat tug‘ildi. PO‘T sifati holatiga umumlashtirilgan baho berish uchun, guruh ko‘rsatkichlari yig‘indisiga asoslangan tortilgan arifmetik o‘rtacha usuldan foydalanildi. Bu usul integral ko‘rsatkichni aniqlash usullaridan biri hisoblanadi va u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N_1 = \sum_{i=1}^{18} V_i \times N_{18}^i \quad (1)$$

bu yerda N_1 – oliy ta‘lim muassasasi PO‘T sifatini baholashning integral ko‘rsatkichi; N_{18}^i - umumiy soni N bo‘lgan i -nchi ko‘rsatkich qiymati; V_i - i -nchi omilning har bir pozitsiyasining ekspert usuli bilan aniqlanadigan, vazn qiymati.

Ushbu usulda, ko‘rsatkichlar muhimligi inobatga olinganligi sababli, integral ko‘rsatkich tadqiq etilayotgan obyekt faoliyati samaradorligini aniqroq aks ettiradi. Integral ko‘rsatkichni hisoblash uchun yuqorida qayd etilgan har bir ko‘rsatkichning vazn qiymatini aniqlash talab etiladi. Bu esa o‘z navbatida ekspert baholash usuli (EBU) yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun ekspert-mutaxassislar guruhi shakllantirildi. So‘rov varaqasi tuzildi va ekspert-mutaxassislarga har bir ko‘rsatkich xususiyatining ahamiyatini baholashi uchun taqdim etildi.

Ekspert-mutaxassislar fikriga ko‘ra, ular barcha javoblari matritsali axborot modelida umumlashtirildi va ma‘lumotlarga matematik ishlov berildi. Matritsali axborot model asosida ranglar yig‘indisi, ranglar yig‘indilari o‘rtachasi, ranglar yig‘indilari umumiy summasi, o‘rtacha ranglar yig‘indisidan og‘ish, og‘ish kvadratlari, og‘ish kvadratlari yig‘indisi, ekspertlar kompetentlik koeffitsiyentlari hamda PO‘T sifatini baholash ko‘rsatkichlarini vazn koeffitsiyentlari aniqlandi.

PO‘T sifatini baholash ko‘rsatkichlari vazn koeffitsiyentlari ranglar yig‘indisini (S_i) ranglar yig‘indilari umumiy summasiga nisbati bilan aniqlandi. Uning formulasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$V_i = \frac{\sum_{j=1}^d r_{ij}}{\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^d r_{ij}} = \frac{S_i}{\sum_{i=1}^n S_i} \quad (2)$$

bu yerda r_{ij} - i -ko'rsatkichga j -ekspert tomonidan berilgan baho (rang); d - jalb etilgan ekspert-mutaxassislar soni; n - ko'rsatkichlar soni.

Vazn koeffitsiyentlari muhimlik darajasi bo'yicha ranjirlandi (5-jadval).

5-jadval

Vazn koeffitsiyentlari muhimligi bo'yicha ranjirlangan (tartiblangan) ko'rsatkichlar¹²

N_1^1	N_1^8	N_1^9	N_1^{10}	N_1^5	N_1^3	N_1^2	N_1^6	N_1^7	N_1^{17}	N_1^{15}	N_1^4	N_1^{12}	N_1^{11}	N_1^{14}	N_1^{16}	N_1^{13}	N_1^{18}
1	8	9	10	5	3	2	6	7	17	15	4	12	11	14	16	13	18
0,103	0,085	0,077	0,077	0,077	0,075	0,073	0,065	0,062	0,058	0,050	0,035	0,035	0,034	0,033	0,032	0,023	0,006

Ko'rsatkichlar vazn koeffitsiyentlarini EBU yordamida aniqlashda "ekspert-mutaxassislar fikri kelishuvchanligi – (EFK)" muhim ahamiyat kasb etadi. Agar EFK darajasi yuqori bo'lsa, u holda ekspert so'rov natijalari ishonchli hisoblanadi. EFK darajasini baholash uchun "konkordatsiya koeffitsiyenti"ni aniqlash talab etiladi. Konkordatsiya koeffitsiyenti odatda Kendall tomonidan taklif etilgan formula yordamida hisoblanadi¹³:

$$W = \frac{12 \times \sum_{i=1}^n D^2}{d^2 \times (n^3 - n)} = \frac{12 \times C}{d^2 \times (n^3 - n)} \quad (3)$$

bu yerda D – o'rtacha ranglar yig'indisidan og'ish; D^2 – og'ish kvadrati; d - jalb etilgan ekspert-mutaxassislar soni; n – ko'rsatkichlar soni.

Xarringtonning verbal-sonli shkalasiga ko'ra, hisoblab chiqilgan konkordatsiya koeffitsiyenti ($W=0,7$) $0,63 \leq W < 0,8$ oraliqdagi qiymatlarga mos kelganligi bois, EFK darajasi yuqori deb baholandi. Bu esa o'z navbatida, ekspert so'rov natijalari ishonchli va haqqoniy ekanligidan dalolat beradi.

EFK yuqori darajasini tavsiflovchi hisoblab chiqilgan konkordatsiya koeffitsiyenti, tasodifiy qiymat emasligi va olingan natijalarga to'laqonli ishonch hosil qilish uchun, uning statistik ahamiyatligi Pirson muvofiqlik mezonini hisoblash va jadval qiymati bilan taqqoslash orqali tekshirildi. Pirson muvofiqlik mezonini quyidagi formula yordamida aniqlanadi¹⁴:

$$\chi^2 = W \times d \times (n - 1) \quad (4)$$

Pirson muvofiqlik mezonining hisoblab chiqilgan ($\chi_{xucob}^2 = 161,61$) qiymati jadvaldagi qiymat ($\chi_{jadval}^2 = 27,59$) dan katta ekanligi, konkordatsiya koeffitsiyenti qiymati ($W=0,7$) statistik ahamiyatli, olingan natijalar ma'noga ega va tadqiqotda ulardan foydalanish mumkin degan xulosaga kelindi.

Ushbu xulosaga asoslanib, PO'T sifatini umumlashtirilgan bahosini olishda EBUDA olingan natijalardan, ya'ni ko'rsatkichlarning vazn koeffitsiyentlaridan foydalanilgan. Natijada, Termiz davlat universiteti PO'T sifatini umumlashtirilgan

¹² Hisob-kitoblar asosida muallif ishlanmasi

¹³ Райхман Э.П., Азгальдов Г.Г. Экспертные методы в оценке качества товаров. - М.: Экономика, 1974. - 151 с.; Голосовский С.И. Эффективность научных исследований в промышленности: // Монография - М.: Экономика, 1986. - 160 с.

¹⁴ Райхман Э.П., Азгальдов Г.Г. Экспертные методы в оценке качества товаров. -М.: Экономика, 1974.-151 с.

bahosi 2,32 ga teng ekanligi, ya'ni 5 baholik shkalaga ko'ra, ushbu natija M_6 holatga (yomon) mos kelganligi aniqlangan. Bu esa o'z navbatida, tadqiq etilayotgan obyekt faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish zaruratini ifodalaydi.

Dissertatsiyaning “**Oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati tahlili va prognozlash**” deb nomlangan uchinchi bobida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifat va samaradorligini korrelyatsion-regression tahlili amalga oshirilgan, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'zlashtirishini Markov zanjirlari asosida prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan hamda oliy ta'lim tizimida iqtidorli talabalarni saralashda binar tanlov modellaridan foydalanish imkoniyatlari bayon etilgan.

Ma'lumki, OTMlari ta'lim sifati va reytingi darajasini aniqlashning tashkil etuvchi unsurlaridan biri tahsil oluvchilar yutuqlari va bilimlar sifati hisoblanadi. Tahsil oluvchilar yutuqlari va bilimlar sifati, ularning mutaxassislik (ixtisoslik) fanlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari bilan baholanadi¹⁵. Shu bois, ixtisoslik fanlari bo'yicha OTM talabalari o'zlashtirish natijalarini yanada oshirish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, tahlil qilish hamda o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish dolzarb masalalardan biridir.

Bu masalani yechimini topishda ekonometrik modellashtirishning korrelyatsion-regression tahlil usuli samarali usul hisoblanadi. Shu bois, tadqiqot ishida OTM tahsil oluvchilarini ixtisoslik fanlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi ta'minlovchi umumkasbiy, tanlov, qo'shimcha fanlardan o'zlashtirishiga bog'liqligini korrelyatsion-regression tahlili ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot ishida, 2018-2019 o'quv yilida Termiz davlat universiteti 5130200 – “Amaliy matematika va informatika” ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilingan (2021-2022 o'quv yilida ushbu ta'lim yo'nalishini bitirgan) talabalarning o'quv rejasiga muvofiq, barcha semestrlarda o'qitilgan ixtisoslik va ta'minlovchi (umumkasbiy, qo'shimcha hamda tanlov) fanlari olingan (6-jadval) hamda ushbu fanlar bo'yicha o'zlashtirish natijalaridan foydalanilgan.

6-jadval

O'quv semestrlari davomida o'qitilgan ixtisoslik va ta'minlovchi fanlar hamda ularning shartli belgilanishi¹⁶

Ixtisoslik fanlar						Ta'minlovchi fanlar (umumkasbiy, tanlov, qo'shimcha)								
Kompyuter grafikasi	Matematik tizimlar	Algoritmlar nazariyasi	Hisoblash usullari	Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari	Matematik modellashtirish asoslari	t.f. Python dasturlash tili	t.f. Amaliy dasturlar majmuasi	Diskret matematika va matematik mantiq	Dasturlash asoslari	Matematika va informatikani o'qitish metodikasi	Dasturlash texnologiyalari	O' yinlar nazariyasi va jarayonlar tadqiqoti	Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika	t.f. Elektron darslik yaratish texnologiyasi
Shartli belgi														
y_1	y_2	y_3	y_4	y_5	y_6	x_1	x_2	x_3	x_4	x_5	x_6	x_7	x_8	x_9

¹⁵ Зарипова М.Д. Оценка качества обучения на основе модели Раша // V Международная научно-практическая конференция. «Наука и образование в современном мире: вызовы XXI века». Сборник научных трудов Казахстан. Нурсултан: 2019, - С. 94-99.

¹⁶ Manba: Termiz davlat universiteti Axborot texnologiyalari fakultetining bakalavriat 5130200 – “Amaliy matematika va informatika” ta'lim yo'nalishi uchun ishchi-o'quv reja.

O'quv fanlarini o'zaro bir-biriga bog'liqligini tahliliy o'rganish maqsadida, uchta o'quv guruhi (65 nafar) talabalarining fan bo'yicha o'zlashtirish natijalari ma'lumotlari asosida, har bir ixtisoslik va ta'minlovchi fanlar o'rtasidagi bog'liqlikning korrelyatsiya koeffitsiyentlari aniqlandi va tahlil qilindi. Har bir ixtisoslik faniga kuchsizroq bog'lanishda bo'lgan ta'minlovchi fanlar chiqarib tashlanib, 6 ta regressiya tenglamasi tuzildi (7-jadval).

7-jadval

Ixtisoslik fanlari va ta'minlovchi fanlar orasidagi bog'liqlikning korrelyatsion-regression tahlil natijalari

№	Omil belgilar	Standart xatolik	t-statistika	t_{jadval}	F_{hisob}	F_{jadval}	MAPE	R	R^2	Shvars mezonini	Akaike mezonini	Xennan-Kuinn mezonini
1	$y_1 = 0,098 + 0,270x_1 + 0,285x_6 + 0,414x_7 + \varepsilon$											
	const	0,498	0,197	1,9996	19,79	2,76	11,66	0,70	0,49	124,01	115,31	118,75
	x_1	0,112	2,411									
	x_6	0,107	2,668									
x_7	0,124	3,330										
2	$y_2 = 1,181 + 0,292x_1 + 0,461x_5 + \varepsilon$											
	const	0,545	2,168	1,9990	15,55	3,15	13,59	0,58	0,33	135,30	128,78	131,35
	x_1	0,123	2,380									
x_5	0,135	3,412										
3	$y_3 = 0,215 + 0,324x_1 + 0,230x_6 + 0,332x_8 + \varepsilon$											
	const	0,414	0,518	1,9996	24,39	2,76	10,05	0,74	0,55	96,45	87,75	91,19
	x_1	0,096	3,365									
	x_6	0,082	2,815									
x_8	0,099	3,358										
4	$y_4 = -0,170 + 0,360x_4 + 0,340x_5 + 0,271x_6 + \varepsilon$											
	const	0,419	-0,406	1,9996	28,32	2,76	9,48	0,76	0,58	96,03	87,34	90,78
	x_4	0,106	3,390									
	x_5	0,103	3,306									
x_6	0,090	3,006										
5	$y_5 = 0,491 + 0,560x_4 + 0,297x_9 + \varepsilon$											
	const	0,421	1,166	1,9990	29,44	3,15	10,19	0,70	0,49	100,82	94,30	96,88
	x_4	0,101	5,527									
x_9	0,103	2,886										
6	$y_6 = 1,193 + 0,354x_7 + 0,321x_8 + \varepsilon$											
	const	0,399	2,992	1,9990	19,96	3,15	12,32	0,63	0,39	110,43	103,91	106,48
	x_7	0,116	3,068									
x_8	0,115	2,790										

7-jadval natijalariga ko'ra, barcha regressiya tenglamalari uchun Fisher F-mezonining hisoblab chiqilgan qiymatlari $F_{hisob} > F_{jadval}$ jadval qiymatlaridan kattaligi aniqlandi va tadqiq etilayotgan ob'ekt uchun tuzilgan tenglamalar statistik ahamiyatli va haqqoniy deb e'tirof etildi. Ko'plik R korrelyatsiya koeffitsiyenti hamda determinatsiya koeffitsiyentlari - R^2 yordamida ko'p omilli regressiya tenglamalari sifatiga baho berildi. Barcha regressiya tenglamalarining korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymatlari tahlil etilganda, 1, 3 va 4 - tenglamalarda omillar o'rtasidagi bog'liqlik kuchli, 2, 5 va 6 - tenglamalarda esa omillar o'rtasidagi bog'liqlik bir maromda ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, determinatsiya koeffitsiyenti qiymatlari, "Kompyuter grafikasi - y_1 " ixtisoslik fani bo'yicha o'zlashtirish 49% ga ko'rib chiqilayotgan ta'minlovchi fanlarning o'zlashtirishlariga bog'liqligini, "Matematik

tizimlar - y_2 ” bo‘yicha 33% ga, “Algoritmlar nazariyasi - y_3 ” bo‘yicha 55% ga, “Hisoblash usullari – y_4 ” bo‘yicha 58% ga, “Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari - y_5 ” bo‘yicha 49% ga hamda “Matematik modellashtirish asoslari - y_6 ” ixtisoslik fani bo‘yicha o‘zlashtirish 39% ga ta’minlovchi fanlarning o‘zlashtirishlariga bog‘liqligini tasdiqladi (7-jadval).

Tadqiq etilayotgan obyekt uchun umumiy xulosa regressiya tenglamasi tahlil natijalari va xususiyatlariga qarab chiqarildi. Tuzilgan barcha regressiya tenglamalari ahamiyatli va ulardan amaliy maqsadlarda foydalanish mumkin degan xulosaga kelindi.

Tadqiqot ishida OTM talabalarini (ma’lum bir guruhning semestrlar bo‘yicha o‘zlashtirishini) retrospektiv ma’lumotlar tanlanmasiga asosan, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi dinamikasini bir jinsli Markov zanjiri yordamida prognoz qiymatlari aniqlangan. O‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini prognozlash, 2018-2019 o‘quv yilida Termiz davlat universiteti bakalavriat 5130200 – “Amaliy matematika va informatika” ta’lim yo‘nalishiga qabul qilingan (2021-2022 o‘quv yilida ushbu ta’lim yo‘nalishini bitirgan) talabalarga nisbatan qo‘llanildi.

Prognozlashtirilayotgan hamda bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish ehtimolliklari matritsasini tuzishda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari qo‘llanilayotgan talabalarining umumiy soni 56 nafarni tashkil qiladi. Talabalarining har bir semestr natijalariga ko‘ra bir holatdan ikkinchisiga o‘tish ehtimolliklari matritsasi retrospektiv ma’lumotlar asosida tuzildi.

Har bir semestr natijalariga ko‘ra talabalar o‘zlashtirishi holati ro‘yxati shakllantirildi. O‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha 4 ta (T_1, T_2, T_3, T_4) holat hamda talabalar o‘zlashtirish natijalari holatining chegaraviy sonli qiymatlari va tavsifiy darajalari belgilab olindi. Talabalarni holatlarga taqsimlash mezon sifatida har bir semestr yakuni bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirish bali (bahosi) olingan. Butun o‘qitish davri uchun tahsil oluvchilar holatlari matritsasi shakllantirilib, har bir o‘zlashtirish holatidagi talabalar soni talabani ma’lum bir holatga tushish mezoniga muvofiq M_1, M_2, M_3, M_4 ko‘rsatkichlar orqali belgilab olingan (8-jadval).

8-jadval

Talabalarining semestrlardagi har bir o‘zlashtirish holatlari bo‘yicha umumiy soni¹⁷

	1-sem.	2-sem.	3-sem.	4-sem.	5-sem.	6-sem.	7-sem.	8-sem.
M_1	1	2	5	5	5	9	9	5
M_2	4	11	32	39	28	28	33	28
M_3	50	43	17	11	21	17	12	21
M_4	1	0	2	1	2	2	2	2

Tahsil oluvchilarning o‘zlashtirish natijalarini boshlang‘ich vaqt momentida ($t = 0$) ularning ma’lum bir holatga tushish mezonlariga muvofiq, kesishmaydigan 4 ta guruhga taqsimlandi. Prognoz qilinuvchi qiymatlarni olish uchun, har bir elementni unga mos keladigan guruhdagi tahsil oluvchilar soniga ko‘paytirish orqali olingan (t

¹⁷ Manba: Termiz davlat universiteti Axborot texnologiyalari fakultetining bakalavriat 5130200 – “Amaliy matematika va informatika” ta’lim yo‘nalishi reyting baholarining jamg‘arma varaqalari asosida muallif hisob-kitoblari.

= 0) vaqt momentida) o‘tish ehtimolliklari matritsasidan (retrospektiv ma’lumotlar) foydalanilgan.

Olingan qiymatlar butun sonlargacha yaxlitlash orqali har bir elementi i guruhdan j guruhga o‘tgan tahsil oluvchilarning prognozlashtirilayotgan sonini ko‘rsatuvchi vektor-ustunlar hosil qilingan (9-jadval).

9-jadval

Talabalarining barcha semestrlardagi har bir o‘zlashtirish holatlari bo‘yicha prognoz va haqiqiy ma’lumotlari¹⁸

Semestr	Prognoz qiymatlari	Haqiqiy qiymatlar	Vektorlar farqi (haqiqiy va prognoz)	Semestr	Prognoz qiymatlari	Haqiqiy qiymatlar	Vektorlar farqi (haqiqiy va prognoz)
Birinchi semestr	$S_0^{pr} = \begin{bmatrix} 1 \\ 4 \\ 50 \\ 1 \end{bmatrix}$	$S_0^{haq} = \begin{bmatrix} 1 \\ 4 \\ 50 \\ 1 \end{bmatrix}$	$D_0 = S_0^{haq} - S_0^{pr} = \begin{bmatrix} 0 \\ 0 \\ 0 \\ 0 \end{bmatrix}$	Beshinchi semestr	$S_4^{pr} = \begin{bmatrix} 13 \\ 18 \\ 25 \\ 0 \end{bmatrix}$	$S_4^{haq} = \begin{bmatrix} 5 \\ 28 \\ 21 \\ 2 \end{bmatrix}$	$D_4 = S_4^{haq} - S_4^{pr} = \begin{bmatrix} 8 \\ 10 \\ 4 \\ 2 \end{bmatrix}$
Ikkinchi semestr	$S_1^{pr} = \begin{bmatrix} 2 \\ 11 \\ 43 \\ 0 \end{bmatrix}$	$S_1^{haq} = \begin{bmatrix} 2 \\ 11 \\ 43 \\ 0 \end{bmatrix}$	$D_1 = S_1^{haq} - S_1^{pr} = \begin{bmatrix} 0 \\ 0 \\ 0 \\ 0 \end{bmatrix}$	Oltinchi semestr	$S_5^{pr} = \begin{bmatrix} 17 \\ 17 \\ 22 \\ 0 \end{bmatrix}$	$S_5^{haq} = \begin{bmatrix} 9 \\ 28 \\ 17 \\ 2 \end{bmatrix}$	$D_5 = S_5^{haq} - S_5^{pr} = \begin{bmatrix} 8 \\ 11 \\ 5 \\ 2 \end{bmatrix}$
Uchinchi semestr	$S_2^{pr} = \begin{bmatrix} 5 \\ 15 \\ 36 \\ 0 \end{bmatrix}$	$S_2^{haq} = \begin{bmatrix} 5 \\ 32 \\ 17 \\ 2 \end{bmatrix}$	$D_2 = S_2^{haq} - S_2^{pr} = \begin{bmatrix} 0 \\ 17 \\ 19 \\ 2 \end{bmatrix}$	Yettinchi semestr	$S_6^{pr} = \begin{bmatrix} 22 \\ 16 \\ 18 \\ 0 \end{bmatrix}$	$S_6^{haq} = \begin{bmatrix} 9 \\ 33 \\ 12 \\ 2 \end{bmatrix}$	$D_6 = S_6^{haq} - S_6^{pr} = \begin{bmatrix} 13 \\ 17 \\ 6 \\ 2 \end{bmatrix}$
To‘rtinchi semestr	$S_3^{pr} = \begin{bmatrix} 9 \\ 17 \\ 30 \\ 0 \end{bmatrix}$	$S_3^{haq} = \begin{bmatrix} 5 \\ 39 \\ 11 \\ 1 \end{bmatrix}$	$D_3 = S_3^{haq} - S_3^{pr} = \begin{bmatrix} 4 \\ 22 \\ 19 \\ 1 \end{bmatrix}$	Sakkizinchi semestr	$S_7^{pr} = \begin{bmatrix} 26 \\ 15 \\ 15 \\ 0 \end{bmatrix}$	$S_7^{haq} = \begin{bmatrix} 5 \\ 28 \\ 21 \\ 2 \end{bmatrix}$	$D_7 = S_7^{haq} - S_7^{pr} = \begin{bmatrix} 21 \\ 13 \\ 6 \\ 2 \end{bmatrix}$

Prognozlashtirilayotgan qiymatlar vektor-ustun va haqiqiy qiymatlar bo‘yicha tuzilgan vektor-ustunlarni taqqoslash natijalariga ko‘ra, talabalar o‘zlashtirishi (o‘quv muvaffaqiyatlari) bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan hamda YuMK tayyorlash jarayoni sifatini oshirish bo‘yicha takliflar berilgan.

OTMlarida tahsil olayotgan talabalar ichidan iqtidorlilarini saralash masalasi ta’limning keyingi bosqichida (magistratura, tadqiqot instituti) tahsilini davom ettirishi mumkin bo‘lgan talabalar ro‘yxatini shakllantirishga imkon beradiki, u kelgusida oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini belgilash ishlarini muvofiqlashtirish uchun xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot ishida mazkur masalani samarali hal etishda binar tanlov modellarining taqsimot turlari bo‘yicha modellaridan (logit va probit) foydalanildi. Tadqiq etiladigan obyekt uchun, 2019-2020 o‘quv yilida Termiz davlat universiteti bakalavriat 5110700 – “Informatika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishiga qabul qilingan, ayni vaqtda 4-kursda tahsil olayotgan 65 nafar talaba olindi.

Modelni qurish binar o‘zgaruvchini qo‘llash g‘oyasiga asoslanganligi bois, Y : agar talaba, o‘quv jarayonida faol, mustaqil fikr-mushohada yuritadigan, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga, innovatsion ishlanmalarga qiziqishi hamda ta’lim natijalari va yutuqlari yuqori bo‘lsa, ekspert-o‘qituvchilar guruhining baholashi bo‘yicha, iqtidorli deb belgilansin $Y=1$; aks holda $Y=0$.

Shuningdek, modelni qurishda omillar sifatida quyidagi ma’lumotlar qo‘llanildi: binar o‘zgaruvchi – y (iqtidorli talaba - $y=1$; talaba iqtidorli emas - $y=0$); omil o‘zgaruvchilar: xorijiy tilni bilish darajasi - x_1 ; kasbiy bilim darajasi - x_2 ; malakaviy

¹⁸ Hisob-kitob natijalari asosida muallif ishlanmasi.

amaliyot - x_3 ; kurs ishi - x_4 . Logit va probit modellar ekonometrik tahlil va modellashtirish uchun mo'ljallangan gretl 2022c dasturidan foydalangan holda tuzildi.

Logit model ko'rinishi:

$$\hat{P}_i = \frac{1}{1 + e^{54,945 - 2,952 \cdot x_1 - 2,276 \cdot x_2}} \quad (5)$$

Probit model ko'rinishi:

$$P_i = F(-31,238 + 1,690 \cdot x_1 + 1,279 \cdot x_2) \quad (6)$$

Model sifati pseudo- R^2 va McFadden- R^2 haqiqatga o'xshashlik munosabati (LRI) indeksleri yordamida baholandi. Logit va probit modellar uchun $L(\bar{\alpha})$ va $L(\alpha_0)$ qiymatlari aniqlandi. Tahlil natijasi ikkala modelda ham chegaralangan va chegaralanmagan haqiqatga o'xshashlik funksiyalari uchun $L(\bar{\alpha}) \geq L(\alpha_0)$ tengsizlik bajarilganligini, ular orasida sezilarli farq borligini, hamda model sifati statistik jihatdan yuqori darajada ekanligini isbotladi.

Hisoblash natijalariga ko'ra, korrelyatsiya koeffitsiyenti logit model uchun $\text{corr}(Y, YR) = 0,885878 \approx 0,89$ ni, probit model uchun $\text{corr}(Y, YR) = 0,886418 \approx 0,89$ ni tashkil etib modellarning empirik ma'lumotlarga muvofiqligini, Student statistikasi (mezoni) logit model uchun $t(63) = 15,1567$ ni, probit model uchun $t(63) = 15,1998$ ni tashkil etib korrelyatsiya koeffitsiyentining statistik ahamiyatligini tasdiqladi.

Y binar o'zgaruvchining haqiqiy qiymatlari P_i ning hisoblangan qiymatlari bilan taqqoslandi. Y - binar o'zgaruvchining haqiqiy qiymatlarini P_i ning hisob qiymatlari bilan juft-juft taqqoslash natijalari ikkala model uchun ham 65 ta holatning 60 tasiga (92,3%) aniq prognoz qilish mumkinligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, logit va probit modellari uchun o'rta nuqtada ta'limning keyingi bosqichida o'qishini davom ettirishi (yoki ettirmasligi) mumkin bo'lgan talabalar ehtimoliga omil o'zgaruvchilar ta'sirining chegaraviy samarasi aniqlandi (10-jadval).

10-jadval

Binar o'zgaruvchi ehtimoliga omil o'zgaruvchilar ta'sirining chegaraviy samarasi¹⁹

No	Omillar	O'rtacha qiymat, \bar{x}_r	Parametr bahosi, α_r	$\bar{x}_r \cdot \alpha_r$	Taqsimot zichligi, $f(z)$	Chegaraviy samara, $\alpha_r \cdot f(z)$
$\hat{P}_i = \frac{1}{1 + e^{54,945 - 2,952x_1 - 2,276x_2}}$						
1	x1	10,877	2,95195	32,10836	0,0560	0,1652
2	x2	11,246	2,27612	25,59725	0,0560	0,1274
3	const	1	-54,9453	-54,9453	-	-
	Σ	-	-	2,760306		-
$P_i = F(-31,238 + 1,690x_1 + 1,279x_2)$						
1	x1	10,877	1,6903	18,3854	0,1228	0,2075
2	x2	11,246	1,27941	14,3882	0,1228	0,1571
3	const	1	-31,2384	-31,2384	-	-
	Σ	-	-	1,5352		-

¹⁹ Muallif ishlanmasi

Chegaraviy samara, logit modelda xorijiy tilni bilish darajasi bo'yicha to'plagan ball (omil o'zgaruvchi qiymati) bir birlikka ortishi bilan talabani ta'limning keyingi bosqichida tahsilini davom ettirish ehtimoli 0,1652 birlikka (16,5%), probit modelda esa 0,2075 birlikka (20,7%) o'zgarishini, logit modelda kasbiy bilim darajasi bo'yicha to'plagan ball bir birlikka ortishi bilan talaba tahsilini davom ettirish ehtimoli 0,1274 birlikka (12,7%), probit modelda 0,1571 birlikka, (15,7%) o'zgarishini ko'rsatdi.

Ikkala modeldan prognoz qilish uchun eng maqbulini tanlash ekonometrik modellashtirishning yakuniy natijalari asosida amalga oshirildi (11-jadval).

11-jadval

Tuzilgan binar tanlov modellari asosida hisoblangan axborot mezonlari qiyosiy tahlili²⁰

Mezonlar	Binar tanlov modellari			
	Logit-model		Probit-model	
Axborot mezonlari qiymatlari				
Akaike	24,04491		23,69247	
Shvars	30,56807		30,21563	
Xennan-Kuinn	26,61871		26,26628	
Model sifatini baholovchi indekslar				
pseudo-R ²	0,49513		0,49651	
McFadden-R ²	0,77938		0,78369	
Chegaralangan va chegaralanmagan haqiqatga o'xshashlik funksiyasi maksimal qiymatlari va ular orasidagi farq				
$L(\bar{\alpha})$	-9,022454		-8,846236	
$L(\alpha_0)$	-40,89586		-40,89586	
$L(\bar{\alpha}) - L(\alpha_0)$	31,8734		32,0496	
Omil o'zgaruvchilar ta'sirining chegaraviy samarasi				
$\alpha_r \cdot f(z)$	x_1	0,1652	x_1	0,2075
	x_2	0,1274	x_2	0,1571

11-jadval natijalariga ko'ra, tuzilgan binar tanlov modellaridan hisoblangan mezonlar bo'yicha eng maqbuli deb, probit model topildi. Boisi, Akaike, Shvars va Xennan-Kuinn mezonlari qiymatlari probit-modelda logit-modelga qaraganda kichikroq, model sifatini baholovchi indekslar (pseudo-R² va McFadden-R² (LRI)) qiymati 1 ga yaqinroq, chegaralangan va chegaralanmagan haqiqatga o'xshashlik

²⁰ Muallif ishlanmasi

funksiyasi maksimal qiymatlari orasidagi farq logit modelga qaraganda kattaroq, hamda probit-modeli uchun oʻrta nuqtada taʼlimning keyingi bosqichida oʻqishini davom ettirishi mumkin boʻlgan talabalar ehtimoliga omil oʻzgaruvchilar taʼsirining chegaraviy samarasi yuqoriroqdir (probit-modelning xorijiy tilni bilish darajasi omil oʻzgaruvchisi taʼsirining chegaraviy samarasi logit-modeldagiga qaraganda 0,04 birlikka, kasbiy bilim darajasi omil oʻzgaruvchisi taʼsirining chegaraviy samarasi esa logit-modeldagiga qaraganda 0,03 birlikka farq qiladi). Natijada, tuzilgan probit model statistik ahamiyatli va undan OTM talabalarini taʼlimning keyingi bosqichida (magistraturada) oʻqishini davom ettirishlari uchun saralash va tavsiya etishning yetarlicha ishonchlilik bilan prognozini amalga oshirishda foydalansa boʻladi degan xulosaga kelindi.

Mamlakat taraqqiyotida, yaʼni ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-siyosiy va madaniy jihatdan rivojlanishida yuqori malakali kadrlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimiz OTMda YuMK tayyorlash faoliyati bilan bogʻliq jarayonlar dinamikasini, istiqboldagi oʻzgarishlarini oʻrganish zarur. Bu oʻz navbatida, YuMK tayyorlash faoliyati bilan bogʻliq asosiy jarayonlardagi (OTMga qabul qilish natijalari, OTM talabalari soni, OTM tahsil oluvchilarining oʻquv jarayonidagi sifat koʻrsatkichlari, bitiruvchilar soni va boshqalar) oʻzgarishlarni aniqlash, joriy davrdagi dinamikasini tahlil qilish, shuningdek kelgusi davrlarda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan oʻzgarishlarni ham tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu imkoniyatlarni hisobga olgan holda, prognozni amalga oshirish yoʻnalishlari aniqlangan. Dastavval, OTMda YUMK tayyorlash faoliyatiga bogʻliq jarayonlarni prognozlash yoʻnalishlari belgilab olindi.

Belgilab olingan asosiy koʻrsatkichlarning xarakteristikasi natijalari boʻyicha maʼlumotlarni hisobga olgan holda, 2008/2009-2022/2023 oʻquv yillari uchun Excel dasturida polinom trend chizigʻini qurish, OTMda YUMK tayyorlash faoliyatiga bogʻliq jarayonlarni prognoz qilish yoʻnalishi yuzasidan tanlangan prognoz modeli ishonchliligini baholashni talab qiladi. Shu bois, avvalambor, Excel dasturida olingan ikkinchi va uchinchi darajali polinom trend tenglamalarining R^2 determinatsiya koeffitsiyentlari aniqlandi (12-jadval).

12-jadval

Oliy taʼlim muassasalarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash faoliyatiga bogʻliq asosiy koʻrsatkichlar prognoz modellari va ularni baholash parametrlari²¹

Koʻrsatkichlar	Prognoz modeli	R^2	MAPE
OTMga qabul qilingan talabalar soni, kishi	$y = 204,95x^3 - 2653,8x^2 + 9229,5x + 55302$	$R^2 = 0,99$	4,11
OTM talabalari soni, kishi	$y = 941,22x^3 - 14180x^2 + 53906x + 233687$	$R^2 = 0,99$	4,94
OTM bitiruvchilari soni, kishi	$y = 618,43x^2 - 8669,1x + 93937$	$R^2 = 0,77$	6,33

²¹ Manba: muallif ishlanmasi

12-jadvalga ko‘ra, OTMda YuMK tayyorlash faoliyatiga bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha tuzilgan barcha prognoz tenglamalarining R^2 determinatsiya koeffitsiyentlari 1 ga yaqin. Bu o‘z navbatida, approksimatsiya xatoligi minimal va prognoz qilish aniqligi yuqori darajada bo‘lishini anglatadi. Unga tayangan holda, prognoz modellari aniqlab olingan (12-jadval).

So‘ngra, regression tahlil amalga oshirildi va unga asoslangan holda polinom trend tenglamalari statistik ahamiyatliligi, parametrlarini ishonchliligi, prognoz qilish aniqligi baholandi. Barcha yo‘nalishlar ko‘rsatkichlari prognozi 2023/2024-2027/2028 o‘quv yillar uchun amalga oshirildi (13-jadval).

13-jadval

Oliy ta‘lim muassasalarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash faoliyatiga bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlar prognozi (kishi)²²

Ko‘rsatkichlar	2023/2024 o‘quv yili	2024/2025 o‘quv yili	2025/2026 o‘quv yili	2026/2027 o‘quv yili	2027/2028 o‘quv yili
OTMga qabul qilingan talabalar soni, kishi	363078	452176	556872	678394	817974
OTM talabalari soni, kishi	1321296	1676234	2098816	2594691	3169504
OTM bitiruvchilari soni, kishi	113548	125287	138263	152476	167926

Xulosa qilib aytganda, tanlangan ko‘rsatkichlarni o‘rganish natijalariga ko‘ra, prognoz ma‘lumotlari bo‘yicha, 2023/2024-2027/2028 o‘quv yillarida OTMda YuMK tayyorlash faoliyatiga bog‘liq asosiy jarayonlar prognoz ko‘rsatkichlari o‘sib boradi. Respublikada OTMga qabul qilingan talabalar soni 2027/2028 o‘quv yiliga borib 817974 nafarni tashkil etadi. Ya‘ni, 2022/2023 o‘quv yiliga nisbatan 2027/2028 o‘quv yiliga kelib 34,5%ga o‘shishga erishiladi. Oliy ta‘lim muassasalari talabalari soni 2027/2028 o‘quv yiliga borib respublikada 3169504 nafarni tashkil etadi. Bu esa, OTM talabalari soni 2027/2028 o‘quv yilida 2022/2023 o‘quv yilidagiga nisbatan 32,9%ga o‘shishini ko‘rsatadi. Xuddi shu kabi, OTM bitiruvchilari soni ham 2027/2028 o‘quv yiliga borib 167926 nafarni tashkil etadi, ya‘ni 2022/2023 o‘quv yiliga nisbatan 61%ga o‘shishini ko‘rsatadi. Bu esa mamlakatimiz OTMda yuqori malakali kadrlar tayyorlash faoliyatini istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ushbu jarayonlarning ijobiy natija ko‘rsatishini belgilaydi. Shuningdek, tadqiqot ishida amalga oshirilgan hisob-kitoblar maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

²² Manba: muallif ishlanmasi

XULOSA

Mazkur dissertatsiya ishi doirasida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim muassasalari salohiyati va kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash orqali oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni monitoringining kompyuterlashtirilgan tizimi (modeli) ishlab chiqilgan.

2. Xorijiy mamlakatlarning oliy ta'limni rivojlantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasidagi tajribalarini o'rganish asosida oliy ta'lim tizimida YuMK tayyorlash jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

oliy ta'lim - ilm-fan - ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani ta'minlash, talabalarni ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga jalb etishning samarali mexanizmini joriy etish uchun hududlardagi universitetlar qoshida "tadqiqot institutlari" tashkil etish;

"tadqiqot institutlari" uchun alohida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan bakalavriat hamda kamida 1 yil bo'lgan magistraturani joriy etish;

"tadqiqot institutlari"ning tegishli ta'lim yo'nalishlariga ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga, innovatsion ishlanmalarga qiziqishi, ta'lim natijalari yuqori bo'lgan talabalarni qabul qilish (oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish davrining ma'lum bosqichidan keyin suhbat asosida hamda ekspert-mutaxassislar tavsiyasiga ko'ra amalga oshirish orqali);

"tadqiqot institutlari"ni tegishli ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ishchi o'quv rejasini to'liq bajargan, tadqiqot ishini tugallagan hamda yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bitiruvchiga "bakalavr" ("magistr") darajasi va diplomini berish.

3. Oliy ta'lim muassasalari talabalari dinamikasining 2010/2011 - 2020/2021 o'quv yillaridagi ko'rsatkichlari keng qamrovli iqtisodiy-statistik tahlil qilingan va miqdoriy jihatdan baholangan. Aniqlanishicha, respublikada 2017/2018 - 2020/2021 o'quv yillari oralig'ida oliy ta'lim muassasalar talabalari soni bazis davrga nisbatan keskin yuqorilagan.

4. Tadqiqotda respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari soni dinamikasiga umumlashtirib baho berish uchun ularning o'rtacha darajalarini hisoblash amalga oshirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, respublikamizda 2010/2011 - 2020/2021 o'quv yillarida tahsil olayotgan talabalar soni o'sish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlangan.

5. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni ko'p jihatdan bevosita oliy ta'lim muassasa professor-o'qituvchilari tarkibi sifati, salohiyati va ish unumdorligiga bog'liq bo'lganligi bois, ular faoliyatini baholashning takomillashgan mezon va ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Professor-o'qituvchilar tarkibi sifatini baholash

ko'rsatkichlarining hisob natijalariga qarab alohida har bir ko'rsatkich tahlil etilgan va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

6. Professor-o'qituvchilar tarkibi sifatini umumlashtirilgan bahosini beradigan integral ko'rsatkichni hisoblash uchun ekspert baholash usulidan foydalanilgan. Ekspertlar kompetentlik koeffitsiyentlari, ekspertlarning har bir ko'rsatkichga bergan baholariga mos keladigan vazn koeffitsiyentlari va unga tayangan holda professor-o'qituvchilar tarkibi sifatini baholash ko'rsatkichlarini vazn koeffitsiyentlari aniqlangan. Ekspert baholash usuli natijalari va ekspert-mutaxassislar fikriga ko'ra, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonida professor-o'qituvchilar tarkibi salohiyatini oshirishda asosiy e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan ko'rsatkichlar bo'yicha asoslangan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

7. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning ta'minlovchi (umumkasbiy, tanlov, qo'shimcha) fanlar bo'yicha o'zlashtirishi ixtisoslik fanlaridan o'zlashtirish natijalariga 33-58%gacha ta'sir ko'rsatishi ishlab chiqilgan regressiya tenglamalari natijalariga ko'ra asoslangan.

8. Talabalarning ixtisoslik fanlari o'zlashtirishiga ta'sir etuvchi ta'minlovchi (umumkasbiy, tanlov, qo'shimcha) fanlar ketma-ketligi o'quv reja bo'yicha ixtisoslik fani bilan parallel yoki mazkur fandan keyin o'qitilishi rejalashtirilganligi aniqlandi. Mazkur holat tahsil oluvchilarning o'quv rejasi noto'g'ri tuzilganligini ko'rsatdi. Ta'minlovchi fanlarni ixtisoslik fanlaridan oldin o'qitishni rejalashtirish va o'qitish, ixtisoslik fani bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi darajasini yanada yaxshilashi inobatga olinib, o'qitishni fanlararo uzviy bog'liqlikda to'g'ri tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

9. Tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifat va samaradorligini baholash uchun tahsil oluvchilar retrospektiv ma'lumotlar tanlanmasiga asoslangan holda talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlarining bir jinsli Markov zanjiri yordamida prognoz parametrlari hisoblangan, olingan natijalar haqiqiy ma'lumotlar bilan taqqoslanib, ular asosida takliflar ishlab chiqilgan.

10. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar ta'lim yutuqlarini joriy davrdagi dinamikasini tahlil qilish, ta'limning keyingi bosqichida (magistratura, tadqiqot instituti) tahsilini davom ettirishlari uchun tavsiya berish mexanizmini shakllantirish, kelgusida oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini belgilash ishlarini muvofiqlashtirish, oliy ta'lim muassasalarining yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb etish ustuvor vazifasini samarali mexanizmini ishlab chiqishning zaruriy sharti ham OTMlarida tahsil olayotgan talabalar ichidan iqtidorlilarini saralashdan iborat ekanligi aniqlandi.

11. 2019-2020 o'quv yilida Termiz davlat universiteti bakalavriat 5110700 – "Informatika o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishiga qabul qilingan, ayni vaqtda 4-kursda tahsil olayotgan 65 nafar talaba ichidan iqtidorlilarini saralashni yetarlicha ishonchlilik bilan prognoz bahosini beradigan logit va probit modellari tuzilgan.

Tuzilgan modellar sifati pseudo-R² va McFadden-R² indekslarini hisoblash, ishonchliligi gretl 2022c va Excelda regressiya tahlili, prognoz qilish imkoniyatini empirik ma'lumotlarga muvofiqligi va Styudent statistikasi (mezoni)ni aniqlash, shuningdek korrelyatsiya koeffitsiyentining statistik ahamiyatliligi bilan tasdiqlandi. Ikkala modeldan prognoz qilish uchun eng maqbulini tanlash hisoblangan mezonlarni qiyosiy tahlil etish orqali amalga oshirildi. Tuzilgan probit model statistik ahamiyatli va undan oliy ta'lim muassasalari talabalarini ta'limning keyingi bosqichida (magistratura, tadqiqot intituti) o'qishini davom ettirishlari uchun saralash va tavsiya etishning yetarlicha ishonchlilik bilan prognozini amalga oshirishda foydalansa bo'ladi degan xulosaga kelindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/28.08.2020.I.55.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЗАРИПОВА МУКАДДАС ДЖУМАЁЗОВНА

**СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ КАЧЕСТВА
ПОДГОТОВКИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ**

08.00.06 – Эконометрика и статистика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ургенч – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2021.3.PhD/Iqt1785.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском) (резюме) размещен на веб-странице Научного совета (<https://www.urdu.uz>) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (<https://www.ziyonet.uz>).

Научный руководитель: Хатамов Очилди Курбонович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Рузметов Бахтияр
доктор экономических наук, профессор

Каримов Жавлон Кузиевич
доктор философии по экономическим наукам (PhD)

Ведущая организация: Каракалпакский государственный университет

Защита диссертации состоится «18» июля 2023 года в 10:00 на заседании Научного совета PhD.03/28.08.2020.1.55.03 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете. Адрес: 220100, г.Ургенч, ул. Хамида Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс (99862) 224-57-00; e-mail: info@urdu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за № D-692). Адрес: 220100, г.Ургенч, ул. Хамида Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Автореферат диссертации разослан «23» июня 2023 года.

(протокол реестра № 62 от «23» июня 2023 года).



И.С.Абдуллаев
председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

Т.Ж.Рахимов
ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, PhD

У.Р.Матякубов
председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, DSc.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях глобальной трансформации, произошедшей в мире все более возрастает важность потребности в высококвалифицированных кадрах в странах. «Расходы затрачиваемые на развитие сектора высшего образования в странах-членах Организации экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) составляют в среднем 1,4% ВВП. А для каждого студента средний затрачиваемый расход составляет 17 560 долларов США. В среднем от общих расходов 63% по странам ОЭСР тратится на основные услуги высших учебных заведений (например: на заработные платы профессоров и преподавателей, учебные здания, учебные лаборатории, учебные материалы и администрации), 33% на научные исследования и инновационные разработки и 4% на вспомогательные (дополнительные) услуги.»²³ Поэтому важным направлением остается выявление факторов, эффективно влияющих на повышение качества процесса подготовки высококвалифицированных кадров, и определение целевых мер по их дальнейшему развитию.

В мировой практике организованы целенаправленные научные исследования по решению ряда проблем, связанных с определением направлений и совершенствованием механизмов повышения качества подготовки высококвалифицированных кадров, которые требует разработки подходов к решению таких вопросам, как, в том числе: совершенствование системы мониторинга качества подготовки кадров в высшем образовании, прогнозирование компетенций, высоко востребованных в современной экономике, прогнозирование учебных достижений обучающихся, управления формированием компетенций выпускников высших учебных заведений, востребованных на рынке труда.

Как одному из приоритетных направлений государственной политики в нашей стране, на высоком уровне уделяется внимание, повышению качества процесса подготовки потенциальных, конкурентоспособных, квалифицированных кадров, вносящих достойный вклад в устойчивое развитие социальной сферы и отраслей экономики, отвечающих требованиям, удовлетворяющих потребности инновационной экономики Нового Узбекистана. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы»²⁴ определены приоритетные стратегические цели и задачи, такие как доведение уровня охвата высшим образованием молодежи в 2022 году до 38%, в 2026 году до 50% и повышение качества образования, а в Приложении №1 (Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года) к Указу Президента Республики Узбекистан от 8

²³ https://www.oecd-ilibrary.org/education/education-at-a-glance-2022_3197152b-en

²⁴ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы» от 28 января 2022 года. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

октября 2019 года № УП-5847 определены приоритетные стратегические цели и задачи, такие как повышение качества подготовки высококвалифицированных кадров, для модернизации и стабильного социально-экономического развития страны, совершенствование и обеспечение объективности технологий системы оценки знаний студентов, поэтапное уменьшение количества предметов в учебных планах за счет непрофильных дисциплин, а также включение сопряженных предметов в перечень предметов по выбору, создание эффективных механизмов привлечения высококвалифицированных профессоров-преподавателей, ученых к образовательному процессу, развитие системы оценки их деятельности на основе определенных показателей²⁵. В обеспечении эффективного выполнения упомянутых задач экономико-статистический анализ и оценка процессов подготовки высококвалифицированных кадров высших учебных заведений, а также определение оптимальных вариантов их решения с помощью экономико-математического моделирования, получение прогнозов показателей развития в перспективе являются актуальными вопросами и приобретают важное значение.

Данная диссертация в определенной степени служит для реализации задач, обозначенных в Законе Республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года № ЗРУ-637 «Об образовании», в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы», от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии Действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», в Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», от 27 июля 2017 года № ПП-3151 «О мерах по дальнейшему расширению участия отраслей и сфер экономики в повышении качества подготовки специалистов с высшим образованием» и в ряде других нормативно-правовых документах, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

²⁵ Приложении №1 (Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года) к Указу Президента Республики Узбекистан № УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2019 года. <https://lex.uz/docs/4545884>

Степень изученности проблемы. Проблемы, связанные с повышением качества подготовки высококвалифицированных кадров в системе высшего образования, освещены в научно-исследовательских работах ученых зарубежных стран таких, как H.Z.Zhu, S.Lou, M.Shah, S.Nair, John T.E.Richardson, A.Pabel, B.Oliver, C.H.Nguyen, M.Joneidi, A.-L. de Boer, Pieter Hertzog du Toit, Detken Scheepers, Theo J.D. Bothma²⁶ и других. Ими были исследованы научно-теоретические и организационно-экономические аспекты таких вопросов, как повышение качества процесса подготовки высококвалифицированных кадров путем развития и реформирования системы высшего образования, формирование исследовательских компетенций, умений и навыков в высших учебных заведениях путем привлечения студентов к исследовательской работе, использование элементов инновационной инфраструктуры высшего учебного заведения в подготовке интеллектуально потенциальных кадров. В научных трудах учёных из стран СНГ (Содружества независимых государств) А.А.Гретченко, Н.Е.Егорова, Г.С.Коврова, А.А.Гибадуллина, А.В.Карагодина, Т.А.Першиной, Е.С.Богдана, А.И.Трубилина, В.И.Гайдука, В.А.Гуртова, Е.А.Питухина, Н.Н.Травкиной, А.Г.Мокроносова²⁷ и других исследованы вопросы подготовки высококвалифицированных кадров для развития цифровой экономики, индустрии туризма, сельского хозяйства и других конкретных сфер отраслей в условиях глобальной трансформации.

В научных изысканиях таких отечественных ученых, как С.С.Гулямова, Р.Х.Аюпова, М.К.Абдуллаева, Г.К.Абдурахмоновой, Д.Ж.Рустамова, К.Х.Абдурахмонова, Ш.Р.Холмуминова, А.О.Очилова, О.С.Каххорова,

²⁶ Zhu, H.Z. & Lou, S. (2011). *Development and Reform of Higher Education in China* // Chandos Publishing. P-192.; Shah, Mahsood & Nair, Sid & Richardson, John. (2016). *Measuring and Enhancing the Student Experience* // Chandos Publishing. P-188.; Mahsood Shah, John T. E. Richardson, Anja Pabel, Beverley Oliver. (2021) *Assessing and Enhancing Student Experience in Higher Education* // Springer International Publishing, P-354; Nguyen C.H., Shah M. (2019) *Quality Assurance in Vietnamese Higher Education: Policy and Practice in the 21st Century*// Springer Nature, P-292.; Nguyen, C. H. (2022). Professional development for educational policymakers: Relating to university quality assurance in Vietnam. *Issues in Educational Research*, 32(3), 1045-1066. <http://www.iier.org.au/iier32/nguyen-ch.pdf>; Joneidi, Mahdi. (2018). *World University Rankings and the Future of Higher Education*. 10.4018/978-1-5225-0819-9.; Ann-Louise de Boer, Pieter du Toit, Detken Scheepers, Theo Bothma. (2013). *Whole Brain® Learning in Higher Education: Evidence-Based Practice*// Elsevier, P-292.

